

SO‘Z BIRIKMASI VA UNGA YONDOSH HOLATLARINING O‘RGATILISHI

Eshqobilova Umida Musurmon qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

O‘zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

umidaeshkabilova@gmail.com

Tel: +998942598104

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘z birikmasi va unga yondosh holatlarning o‘zaro farqlari nazariy jihatdan tahlil qilinar ekan, ularni o‘quvchilarga o‘rgatish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlar ham taklif qilinadi. Xususan, mavzuni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradigan , blitz-so‘rov, matn asosida tahlil, taqqoslash usullari hamda yozma mashqlar asosida mustahkamlash kabi metodlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Maqolada o‘qituvchilar uchun darsni tashkil etishda qulay bo‘lgan mashq turlari, savol-javoblar, erkin insho kabi topshiriqlar namunasi ham keltirilib, ularning didaktik ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot umumiyligi o‘rta ta’lim maktabalarida ona tili darslarini interaktiv usullarda olib borish, o‘quvchilarning sintaktik bilimini chuqurlashtirish hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z birikmasi, yondosh holatlar, sintaksis, grammatick birlik, qo‘shma so‘z, frazeologizm, metodik yondashuv, dars metodikasi, grammatick tahlil.

Abstract: This article theoretically analyzes the differences between word combinations and their related cases, and also suggests effective methodological approaches to teaching them to students. In particular, it shows how to use methods such as the cluster method, blitz-survey, text-based analysis, comparison methods, and reinforcement based on written exercises, which help to deeply master the topic. The article also provides examples of exercises, questions and answers, tests, and free essays that are convenient for teachers in organizing lessons, and highlights their didactic significance. The study is aimed at conducting native language lessons in general secondary schools using interactive methods, deepening students' syntactic knowledge, and developing independent thinking.

Key words: word combination, adjacent cases, syntax, grammatical unit, compound word, phraseology, methodological approach, cluster method, teaching methodology, grammatical analysis.

So‘z birikmalari va unga yondosh holatlar o‘zbek tilining sintaksis tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ularni farqlay olish til o‘rgatuvchi pedagoglar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham zarur nazariy-amaliy ko‘nikma hisoblanadi. So‘z birikmasi – bu ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning grammatik va semantik bog‘lanishi natijasida hosil bo‘ladigan birlik bo‘lib, gapning alohida bir bo‘lagi sifatida ishtirok etadi. Masalan, oq daftar, tez yurdi, qiziqarli kitob kabi birikmalar mustaqil so‘zlar asosida qurilib, bosh-ergash munosabatini namoyon qiladi. Bu birikmalarda asosiy so‘z boshqa bir so‘zga ergashadi va ular bir-biriga grammatik jihatdan tobelanadi. Aynan mana shu grammatik tobeklik munosabati so‘z birikmasini yondosh holatlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Yondosh holatlar esa, tashqi ko‘rinishi bilan so‘z birikmasiga o‘xshab ketishi mumkin bo‘lsa-da, grammatik va semantik jihatdan farqli birliklardir. Masalan, tezyurar so‘zi bir butun qo‘shma so‘z bo‘lib, u bir predmet yoki sifatni bildiradi, ammo tez yurmoq – bu so‘z birikmasidir. Yana bir misol: “ko‘z yummoq” iborasi frazeologik birlik bo‘lib, u doimiy majoziy ma’no ifodalaydi va tahlilga bo‘ysunmaydi, lekin “ko‘z yumdi” birikmasi odatiy harakatni bildiruvchi fe’l birikmasi hisoblanadi. Bu ikki birlik orasidagi asosiy farq – frazeologizmlarning tarkibiy qismlari grammatik tahlilga bo‘ysunmasligi, so‘z birikmasi esa tahlilga imkon berishidadir.[Djumabayeva J.Sh. Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonomiya. Monografiya. – Toshkent, 2007yil. 126-bet].

So‘z birikmasi va unga yondosh holatlarni farqlash bo‘yicha dars berishda bir nechta samarali metodlardan foydalanish mumkin. Eng avvalo, taqqoslash usuli asosida bir juftlikdagi birliklar o‘rtasida farqlar ko‘rsatiladi. Masalan, tez yordam (so‘z birikmasi) va Tezyordam (qo‘shma ot) juftligi orqali o‘quvchilar grammatik tahlil qilishga undaladi. So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar orasida bosh-ergash munosabati mavjud bo‘lsa, qo‘shma ot holatida bunday grammatik aloqadorlik emas, balki leksik birlik sifatida qaralaydi. Shuningdek, frazeologik birliklar va so‘z birikmalarini ham solishtirish orqali o‘rganiladi.

Frazeologik iboralar majoziy ma'noga ega bo'lib, ko'pincha ustalik, holat yoki shaxsning ruhiy holatini bildiradi, masalan, "til topishmoq", "ko'z yumdi", "yuragi yorildi" kabi.

Tahliliy metod orqali har bir birlik grammatik tarzda tahlil qilinadi. O'quvchilarga "so'z birikmasini aniqlang, bosh va ergash so'zlarni toping, bog'lanish usulini aniqlang" kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, "qizil gul" birikmasida "gul" – bosh so'z, "qizil" – ergash so'z, bog'lanish turi – tobelik bog'lanishidir. Frazeologik birliklar esa bunday tahlilga bo'ysunmasligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun induktiv metoddan foydalaniлади. Darsda avval bir necha misollar keltiriladi, masalan: "oq non", "o'tkir qalb", "temiryo'l", "ko'ngli bo'sh", "boshi berk", "tez yurdi", va o'quvchilar ushbu birikmalar orasidagi o'xshashlik va farqlarni mustaqil izlab topadilar. Bunda til sezuvchanligi va kuzatuvchanlik ortadi.

Amaliy mashq usuli esa o'quvchilar bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular berilgan so'zlar asosida so'z birikmasi tuzish, frazeologik birliklarni ajratish, qo'shma so'zlarni aniqlash, ularni jadvalda to'g'ri turkumlash kabi topshiriqlarni bajaradilar. Masalan, "qizil gul", "gap", "ko'z yammoq", "yurmoq", "qattiq non", "mehnat qildi" so'zları beriladi. O'quvchi ularning qaysi biri birikma, qaysi biri ibora, qaysi biri qo'shma so'z ekanini aniqlashi lozim. Didaktik o'yinlar orqali ham mavzuga qiziqish orttiriladi. "To'g'risini top", "Farqni top", "Kim ko'proq topadi?" kabi o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, so'z birikmasi va unga yondosh holatlardan foydalangan holda matn tuzish topshiriqlari beriladi. Bu usul yozma nutq ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'quvchilar o'z yozgan matnlarida so'z birikmalaridan qanday foydalanganini tahlil qiladi.

"Matndan topish" usuli ham keng qo'llaniladi. Bunda o'qituvchi tomonidan kichik matn beriladi va o'quvchilar undan so'z birikmalarini, qo'shma so'zlarni, frazeologik birliklarni ajratib, jadvalga joylashtiradi. Bu usul grammatik tahlil ko'nikmasini mustahkamlaydi. Jadvalga joylashtirish orqali o'quvchi vizual fikrlashga o'tadi va bu orqali farqlash ko'nikmasi yanada kuchayadi.

so'z birikma	qo'shma so'z	frazeologik birlik
--------------	--------------	--------------------

So‘z birikmasi va unga yondosh holatlar farqini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda grammatik tafakkur, kuzatuvchanlik, tahlil qilish, umumlashtirish, to‘g‘ri yozish kabi til ko‘nikmalari shakllanadi.[Sharipov M. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 2018. 13-bet].Bu mavzu, ayniqsa, tilshunoslik asoslarini o‘rgatish, savodxonlikni oshirish va og‘zaki hamda yozma nutqni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan darsliklar, amaliy mashqlar, taqqoslovchi jadval va testlar vositasida mavzu chuqur o‘zlashtiriladi. Mavzuni o‘zlashtirishda zamonaviy metodlardan foydalanish – jumladan, raqamli taqdimotlar, videodarslar, guruhli loyihalar orqali ishslash – dars samaradorligini oshiradi. Yondosh holatlar bilan so‘z birikmalarining tub farqini aniq anglagan o‘quvchi tilda aniq, izchil va boy nutq egasiga aylanadi. Yana bir metod – “**Blits-so‘rov**” metodi orqali o‘quvchilardan so‘z birikmasi va unga yondosh birliklar farqini so‘z bilan ifodalash, o‘z misollarini keltirish so‘raladi. Bu usul darsda faollikni oshiradi va har bir o‘quvchi mavzu ustida mustaqil fikr yuritishga intiladi. Masalan, o‘qituvchi “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri?” deb savollar berishi mumkin: “Ko‘ngli ochiq – bu so‘z birikmasimi?”, “Tezyurar – yondosh holatmi?” va h.k. Har bir javobga izoh berish topshiriladi. Bundan tashqari, “**Matn asosida aniqlash**” metodidan foydalanish ham foydali. O‘quvchilarga kichik matn beriladi, masalan, quyidagi jumla: “U erta tongda tez yurib, uzoq yo‘l bosdi. Tezyurar mashinalar ko‘chada shovqin solardi.” Ushbu matndan o‘quvchi “tez yurib” – so‘z birikmasi, “tezyurar” – qo‘shma sifat, “uzoq yo‘l” – aniqlovchi so‘z birikmasi ekanini tahlil qilib ko‘rsatadi. Bu usul yordamida o‘quvchi bir xil ildizli so‘zlarning grammatik vazifasini kontekstda farqlashni o‘rganadi.

Didaktik material sifatida so‘z birikmalari va yondosh holatlar asosida tayyorlangan testlar, topshiriqlar, bo‘sh joylarni to‘ldirish mashqlari ham samarali.

Mavzuni puxta o‘zlashtirish uchun “**metakognitiv yondashuv**”dan foydalanish ham samarali. Bu yondashuv asosida o‘quvchilar “Men nimani o‘rgandim?”, “Nimani to‘liq

tushunmadim?”, “Bu bilimni qayerda qo’llashim mumkin?” degan savollar asosida o‘z bilimini baholaydi. Bu jarayonni yozma shaklda topshiriq sifatida berish, masalan, kunlik dars yakunida “So‘z birikmasi va unga yondosh holatlar haqida nimalarни tushunding?” degan savolga qisqa parcha yozish tarzida amalga oshiriladi. Shu orqali darsda o‘rgatilgan nazariy bilim o‘quvchi tafakkurida mustahkamlanadi. Yakuniy bosqichda o‘quvchilarga o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etish imkonini berish maqsadida “**Erkin insho**” topshirig‘i beriladi. Masalan, “So‘z birikmalari yordamida tuzilgan matnning ifoda kuchi” yoki “Frazeologizmlar va oddiy birikmalar: nutqdagi roli” mavzusida qisqacha insho yozish. Bu amaliy topshiriq orqali o‘quvchilar mavzuni mustaqil tushunishga, so‘zlar orasidagi munosabatni anglashga harakat qiladi. Yozma mashqlar orqali mavzudagi nazariy bilim amaliy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z birikmalari va ularga yondosh holatlar farqini chuqr o‘rganishda, turli metodlardan foydalanish, amaliy topshiriqlar orqali bilimni mustahkamlash orqali o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki grammatik fikrlash, tahlil qilish, matn tuzish, izchil va ifodali nutq ko‘nikmalari ham shakllanadi. Mavzuning dolzarbliji shundaki, bu soha o‘zbek tili o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning sintaktik savodxonligini rivojlantiradi, ularning fikrini grammatik asosda tuzish qobiliyatini mustahkamlaydi. Turli yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar esa bu jarayonni jonli va qiziqarli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Djumabayeva J.Sh. Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonomiya. Monografiya.
– Toshkent. 2007. 126-bet.

Sharipov M. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 2018. 13-bet.

Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011. 171-bet.

Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 305-bet

Muhiddinova H., Xudoyberanova D. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006. 133-bet